

## **AZ-ZAMAXSHARIY ASARLARINING ARAB GRAMATIKASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**Abdumajidova Kamola To'ychi qizi**

*Yangi asr universiteti, filologiya tillarni o'qitish (arab tili)*

*2-bosqich talabasi*

**Ibragimova Muhabbat Bahodirovna**

*"Yangi asr" universiteti "Mumtoz Sharq*

*filologiyasi" kafedra o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariyning hayoti, ilmiy merosi, arab tilshunosligiga, xususan, grammatikasiga qo'shgan ilmiy hissasi o'rganiladi. "Al-Kashshof", "Al-Mufasssal", "Muqaddimat al-Adab", "Asos al-Balog'a" kabi asarlarining arab tilshunosligi hamda islomiy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi ilmiy asosda yoritilgan.

**Abstract.** This article examines the life and scholarly legacy of the great scholar Mahmud az-Zamakhshari, focusing on his significant contributions to Arabic linguistics, particularly grammar. It also provides an academic analysis of the impact of his works — such as Al-Kashshāf, Al-Mufasssal, Muqaddimat al-Adab, and Asās al-Balāgha — on the development of Arabic linguistic studies and Islamic thought.

**Аннотация.** В данной статье изучаются жизнь и научное наследие великого учёного Махмуда аз-Замахшари, а также его значительный вклад в арабское языкознание, особенно в область грамматики. Кроме того, анализируется влияние таких его трудов, как «Аль-Кашшаф», «Аль-Муфасссал», «Мукаддимат аль-Адаб» и «Асас аль-Балага», на развитие арабского языкознания и исламской мысли.

**Kalit so'zlar:** Zamaxshariy, Al-Kashshof, Al-Mufasssal, balog'at, arab tili

grammatikasi, tafsir, Muqaddimat al-Adab.

Xorazm vohasi azaldan jahon ilm-fani va madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar yurti sifatida mashhur bo'lib kelgan. O'z zamonasining eng mashxur olimlaridan biri Az-Zamaxshariy, bu darajaga yetib kelgunicha qanchadan-qancha mashaqqatlar ko'rgan. Buyuk mutafakkir olim 1075-yil 19-martda Xorazm shahrida dunyo yuzini ko'radi. Shuningdek, uni „Faxri Xorazm“ ya'ni “Xorazm iftixori” deb atashgan, chunki insonlar undan Qur'on va arab grammatikasini o'rganish uchun Xorazmga safar qilishgan. Zamaxshariyning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar, asosan, o'rta asr arab manbalarida, qisman olimning asarlarida ham keltirilgan. Bu tarzda ma'lumotlarni Ibn Xallikon, Ibn al-Anboriy, Yoqut al-Hamaviy, va boshqa arab mualliflarining asarlarida uchratishimiz mumkin. Mana shu mualliflar keltirgan dalillarga tayanib ayta olamizki, Zamaxshariyning otasi unchalik badavlat bo'lmasa-da, o'z davrining savodli, taqvodor, diyonatli kishisi bo'lgan. Aksar vaqtini Qur'oni karim tilovati-yu, toatibodat bilan o'tkazgan va Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qilgan. U xulq-atvori yaxshi, shirinsuxan va g'oyat mehr-muruvvatli kishi sifatida el orasida katta obro'ga ega bo'lgan. Onasi ham taqvodor va fazilatli, ma'rifatli ayollardan bo'lgan. Zamaxshariy dastlabki bilimini ona yurti Zamaxsharda o'z ota-onasidan olgan<sup>21</sup>.

Yoshlik chog'laridan ilm-irfonga intilgan Zamaxshariy bilim va tajribasini oshirish maqsadida Islom dunyosining yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biri bo'lgan Buxoroyi sharifga yo'l olgan. Ammo ilm tolibi yo'lda yuz bergan baxtsiz hodisa (otdan yiqilib, oyog'i jiddiy jarohatlangani, buning ustiga qahraton sovuq bo'lgani) tufayli bir oyog'ini kestirishga majbur bo'ladi va butun umri davomida yog'och oyoqda yuradi. Biroq u bu jismoniy cheklovlarga qaramay, ilm olishni davom ettirgan.

Zamaxshariy ilm talabida bir nechta xorijiy mamlakatlarga safar qilgan. Darhaqiqat, u Xuroson, Shom, Iroq, Hijozda bo'lganligi yozma manbalarda qayd etilgan. Mana shu yurtlarda bo'lganida Zamaxshariy o'sha davrning ko'p mashhur

---

<sup>21</sup> [www.oliymahad.uz](http://www.oliymahad.uz)

olimlaridan saboq oldi, ular bilan ilmiy, ijodiy munozaralarda ishtirok qildi, samarali hamkorlik rishtalarini bog'ladi<sup>22</sup>.

Zamaxshariy Qur'oni karim nozil bo'lgan arab tilini yoshligidan katta havas va ishtiyoq bilan o'rgandi. Arablarning hayoti, urf-odatlarini va turli lahjalarini uzoq yillar davomida tinimsiz tadqiq etdi. Allomaning arab tiliga bo'lgan mehri va ixlosi alohida edi. Shu bois, bu tilning grammatikasi, leksikasi va umuman arab tilshunosligiga oid bir qancha muhim asarlarni aynan shu nogiron donishmand yaratgan. Uning jahonga dong'i ketgan "Muqaddimat al-Adab", "Mufasssal", "Asos al-Balog'a" kabi yirik ta'liflari aynan shu yo'nalishda yozilgan.

"Kashf az-Zunun" asari muallifi aytadi: "Bu kitob ulkan maqomga ega bo'lib, u haqida shunday deyilgan:

إذا ما أردت النحو هاتك مَحَصَّلاً  
عليك من الكتب الحسان مُفَصَّلاً

Ya'ni, "Agar sen nahv fanini egallamoqchi bo'lsang, go'zal kitoblar orasida sen uchun eng afzali – "Mufasssal"dir".

Shu bilan birga, alloma jami besh yildan ortiq vaqt yashagan muqaddas Makka shahrini ham o'zining ikkinchi vatani o'rnida ko'radi. Chunki Makka ahli, ayniqsa, uning amiri Abu-l-Husayn Ali ibn Iso ibn Hamza ibn Vahhos al-Husayniy Zamaxshariyni katta izzat-ikrom va alohida hurmat bilan kutib olib, olimning ilmiy, ijodiy va mudarrislik faoliyati uchun barcha sharoitlarni yaratgan.

Atoqli olim Ibn Xallikon shunday deydi: "Zamaxshariy tafsir, hadis, nahv, sarf, lug'at va ilmu-l-bayon bo'yicha buyuk allomadir. Hech bir mubolag'asiz, mazkur ilmlarda u o'z davrining yagonasi, ko'pdan-ko'p ajoyib asarlarning muallifi edi"<sup>23</sup>.

Zamaxshariydan bir necha asr keyin yashagan taniqli Misr tarixchisi Ibn Tagriberdiy esa alloma haqida: "Shayx, buyuk alloma, o'z davrining yagonasi, o'z asrining eng peshvosi va imomi bo'lgan", deb aytgan.

<sup>22</sup> ابن خلكان. وفيات الأعيان. بيروت: دار الكتب العلمية، ٢٠٠٠.  
<sup>23</sup> ابن خلكان. وفيات الأعيان. بيروت: دار الكتب العلمية، ٢٠٠٠.

Tilshunoslik va grammatikaning turli masalalariga oid asarlar Zamaxshariy ijodida salmoqli o‘rin egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid “Mufasssal fi-n-nahv” nomli asarini u Makkada yashagan paytida bir yarim yil davomida yozgan.

Asarning bir qancha qo‘lyozma nusxalari Toshkentdagi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. “Mufasssal”ning ixchamlashtirilgan, muxtasar holga keltirilgan nusxasi “Al-Unmuzaj” (“Namuna”) nomi bilan mashhur<sup>24</sup>.

Mahmud az-Zamaxshariy turli soha ilmlariga doir 50 dan ortiq asar yozib qoldirdi. Ayniqsa, uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag‘ishlangan “Al-Mufasssal”, Qur’oni Karim tafsiri(sharhi)ga oid “Al-Kashsho” asari butun musulmon olamida mashhurdir. Mahmud az-Zamaxshariy “Jorulloh” (Allohning qo‘shnisi), “Arab va g‘ayri arablar ustozlari”, “Xorazm faxri” kabi sharaflilar nomlari bilan ulug‘langan. Qohiradagi mashhur Al-Azhar diniy dorulfununining talabalari hozir ham „Al-Kashshof“ asari asosida Qur’oni karimni o‘rganadilar.

Uning tilshunoslik yondashuvi chuqur tahliliy va mantiqiy xususiyatga ega bo‘lib, tilni faqat grammatik qoidalar majmui emas, balki ma’noni ifodalash vositasi sifatida o‘rgangan. Bu bilimlari, ayniqsa, “Kashshof” nomli Qur’on tafsirida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Kashshof”da Zamaxshariy Qur’on oyatlarini tafsir qilishda arab tili grammatikasi, morfologiyasi, sintaksisi va balog‘atidan keng foydalanib, oyatlarning ma’nosini chuqur tushunish uchun tilning har bir jihatiga e’tibor qaratgan. Jumladan, sintaktik, morfologik va balog‘at tahlillari orqali Qur’onning uslubiy go‘zalligi va ma’no ifodalashdagi rolini ochib bergan. Bu uning tilni badiiy ifoda quroli sifatida tushunganidan dalolat beradi.

Az-Zamaxshariyning “Al-Mufasssal fi sina’at al-a’rab”

“Arab tili sir-sinoatlarining batafsil tahlili” asari arab grammatikachilari tomonidan arab sintaksisi (va morfosintaksisi) haqidagi eng ta’sirli kitoblardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, ba’zi grammatikachilar uni Abu Bishr Amr ibn Usmon ibn Qanbar al-

---

<sup>24</sup> Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. T.: Toshkent. “O‘zbekiston”. 2018. – 143 b.

Basriyning arab grammatikasi bo'yicha kitoblaridan keyingi ikkinchi sintaktik kitob deb hisoblashgan, chunki Az-Zamaxshariy arab tilining har bir sintaktik va morfologik jihatlari haqida gapirgan. U bu kitobni 513-hijriy yilning oxirlarida yozishni boshlagan va uni 515-yil (milodiy 1122-yil) boshida tugatgan, demak, 1 yil 4 oydan kamroq vaqt talab etgan. Bu asar tarix davomida turli tilshunolar tomonidan o'rganilgan va zamonaviy davrda turli tilarga, masalan, 1873-yilda nemis tiliga tarjima qilingan. Mahmud Zamaxshariy «Asos ul-balog'at» asari bilan arab lug'atchiligini yuqori pog'onaga ko'tardi. U avvalo lug'atdagi so'z sirasiga lug'atdan foydalanishni osonlashtiradigan yangilik kiritdi, ya'ni so'zlarni birinchi navbatda birinchi harfini va undan keyingi harflarini ham nazarga olgan holda alifbo tartibida beradi. Bu usul sal o'zgargan holda hozirgi zamon leksikografiyasida hanuz qo'llanmoqda. Mahmud Zamaxshariyning «Asos ul-balog'at» lug'ati aloma ijodidagina emas, balki butun arab lug'atnavisligi tarixida muhim o'rin tutadi. Arab lug'atnavisligi tarixiga nazar tashlanadigan bo'lsa, bunday lug'at Zamaxshariygacha va undan keyin ham yaratilgan emas. Mahmud Zamaxshariy o'z asarining manbalari haqida gapirib, arablarning fasohatli lug'atidan, turli-tuman nasriy va nazmiy yozma manbalardan yiqqan ajoyib iboralarga, shuningdek, bozorda, jome' masjidlarda so'zga chechan xatiblardan eshitganlariga asoslanib yozgani haqida zikr qiladi. «Asos ul-balog'at»ning lug'at-maqolalarida avval jonli tilda iste'molda bo'lgan iboralar va turli frazeologik birikmalar keltirilib, so'ng ularning qo'llanishdagi ma'nolari shu iboralar orqali ochib berilgan. Demak, «Asos ul-balog'at» asarida so'zlarni izohlashning boshqa hamma lug'atlardagi an'anaviy usulining teskarisi, ya'ni jonli til, nutq birinchi o'ringa qo'yilganining shohidi bo'lamiz. Zamaxshariyning «Asos» lug'atini tuzishda tutgan ayni shu yo'li uning boshqa lug'atlardan ajralib turishiga hissa qo'shgan. «Asos ul-balog'ati»ning ko'plab qo'lyozma nusxalari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. O'zFASHI fondida 5234 hujat raqam ostida saqlanmoqda. U. Qoriyev «Asos ul balog'at»ni leksikografik tahlil qilgan.

Demak, Zamaxshariy grammatik fikrini tafsir, balog'at va lug'atshunoslik

bilan bog‘lagan holda bayon etgan va uning merosi hozirgi zamon arab grammatikasi nazariyasini o‘rganishda inkor etib bo‘lmaydigan asosiy manbalardan biridir.

Mustaqillik yillarida Zamaxshariyning hayot yo‘li va ilmiy merosini o‘rganish yo‘lida samarali ishlar amalga oshirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, sobiq Prezidentimiz Islom Karimov imzo chekkan qaroriga muvofiq, 1995 yilda Zamaxshariy hazratlari tavalludining 920 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi. 2015-yilda esa Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasida Mahmud Zamaxshariy tavalludining 940 yilligiga bag‘ishlangan “Mahmud Zamaxshariy merosi va hozirgi zamon” mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman bo‘lib o‘tdi.

Zamaxshariy asarlarini mukammal va har tomonlama chuqur o‘rganib, ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish, ulug‘ mutafakkir qalamiga mansub boy ilmiy-ma’naviy merosni keng jamoatchilikning haqiqiy boyligiga aylantirishdek sharaflari va xayrli ish – bugungi olimlarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir<sup>25</sup>.

Mahmud az-Zamaxshariy o‘z davrining eng serqirra va ulug‘ allomalaridan biri bo‘lib, arab tili grammatikasi, balog‘at ilmi va Qur‘on tafsirchiligiga beqiyos hissa qo‘shgan. Uning “Al-Kashshof” kabi asarlari islom ilmlari rivojida muhim manba sifatida qadrlanadi. Zamaxshariy chuqur ilm, mustaqil fikr va yuksak adabiy uslub egasi bo‘lib, asarlari bugungi kunda ham ilm ahli tomonidan o‘rganilmoqda va qadrlanmoqda. U o‘z ilmiy merosi bilan nafaqat Xorazm, balki, butun islom madaniyati tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk mutafakkir sifatida tarixdan munosib o‘rin olgan.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. T.: “O‘zbekiston”. 2018. – 422 b.
2. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA TIL O‘QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.

---

<sup>25</sup> Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. T.: Toshkent. “O‘zbekiston”. 2018. – 145 b.

3. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.
4. Jo‘rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.
5. Fatilloev, M., & Sh, S. (2020). Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit" Malak" In The Epic" Hayrat Ul-Abrar" By Alisher Navai. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS* Учредители: *The USA Journals*, 2(9), 493-498.
6. RAXIMJONOV, M. (2025). PUBLIC OPINION ABOUT KHOJA AKHRARI VALIA AND MIRZA ULUGBEK. *The Journal of Interdisciplinary Human Studies*, 1(3), 73-77.
7. Nugmanovich, R. M. Self-education And Self-improvement. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 998-1001.
8. Турсуналиева, М. А. (2021). “ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО” ДОСТОНИНИНГ НАЪТ ҚИСМИНИНГ БЕРИЛИШИ (ОГАХИЙ ТАРЖИМАСИ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ АСОСИДА). *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 357-360.
9. Musaev, I. X. (2025, December). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINING ESTETIK VA FALSAFIY TALQINI SAIDBEK HASANOV TADQIQOTLARIDA. In *Conferences* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-70).
10. Victoria, M. (2022). Peculiarities of the functioning of borrowings in the media of the arab countries.
11. Jo‘rayeva, M. A. “SHARHI MULLO” A RARE SOURCE.
12. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she‘riyatda Bobur g‘azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
13. Jurayeva, N. G. (2022). O ‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BAYT POETIKASI TUSHUNCHASINING TUTGAN O ‘RNI VA TIPALOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 729-733.